

AYOL RAXBARLAR FAOLIYATIDA MILLIY MINTALITETNING TA'SIRI

Jabborova Sayyora Muhammadqobilovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Odiljonova Surayyo

Tojimatova Muazzam

Jumaboyeva Zulayho

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi (sirtqi) 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayol raxbarlar, umuman ayol kishining jamiyatimizga qo'shayotgan hissasining kelajagimiz poydevorini qurishda yetakchiligi, ishga masuliyatliliği haqida fikrlar bayon etiladi. Shu bilan birga milliy qadriyatlar va ayolga bo'lgan xurmat o'zbek xalqi azaldan ayol zotini oila ustuni, kelajak tarbiyachisi va jamiyatning ma'naviy ustuni ekanligi yoritilgan. Maqolada ayol raxbarlarning faoliyatida milliy mintalitetning o'rni va axamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarning ayollar arxbarlik faoliyatiga ijobiy hamda salbiy ta'sirlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: raxbarlik, mintalitet, faoliyat, jamiyat, oila, milliy qadriyatlar, ijtimoiy stereotiplar, demokratik tamoyillar.

Аннотация: В статье представлены идеи о лидерстве и ответственности женщин в нашем обществе в построении фундамента нашего будущего. При этом особое внимание уделяется национальным ценностям и уважению к женщинам, поскольку узбекский народ всегда считал женщин опорой семьи, хранительницей будущего и духовной опорой общества. В статье анализируется роль и значение национального менталитета в деятельности женщин-лидеров. Также освещается положительное и отрицательное влияние национальных ценностей, обычаев, традиций на женскую журналистику.

Ключевые слова: лидерство, менталитет, деятельность, общество, семья, национальные ценности, социальные стереотипы, демократические принципы.

Abstract: This article presents ideas about the leadership and responsibility of women in our society in building the foundation of our future. At the same time, national values and respect for women are highlighted, as the Uzbek people have always considered women as the pillar of the family, the nurturer of the future and the spiritual pillar of society. The article analyzes the role and importance of national mentality



in the activities of women leaders. It also highlights the positive and negative impact of national values, customs, traditions on women's journalism.

Keywords: *leadership, mentality, activity, society, family, national values, social stereotypes, democratic principles.*

KIRISH

Ayol bu hayot. Usiz hech narsa butun emas. Qayga boqmang uning husniga, latofatiga hech bo'lmasa u yaratgan go'zallikka ko'zimiz tushadi. U bilan uy quvonchlarga to'la, u bilan farzandlar baxtli, u bilan olam charag'bon. Dunyoda hech narsa yo'qki, uni bajara olmasa. Mazzali taom diysizmi, uy yumushlarimi, yoki bola tarbiyasi, o'qituvchilik, hamshiralik, hamma hamma sohada yetakchi. ayol kishi bir tarafdin qaraganda nozik xilqat bo'lsa, boshqa tarafdin qaralsa, juda ko'p ishlari muvaffaqiyat bilan bajaruvchiyahshi ish boshi hamdir. Bugungi kunda jahon miqiyosida gender tengligi masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatgichlaridan biri xisoblanadi. Ayniqsa rahbarlik lavozimlarida ayollar faolligining oshishi xar bir mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi teng imkoniyatlarni ta'minlashda muhim omildir. Ularning faoliyatiga milliy mintalitet, ya'ni xalqning qadriyatlari, urf-odatlar, an'analari va dunyo qarashi katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir millatning mintaliteti o'ziga xos bo'lib, ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi faollidi belgilab beriladi.

ASOSIY QISM

Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos oliyjanob xususiyatlardan biridir. Shu ma'noda O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmogda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq.

Milliy mintalitet – bu xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ma'naviy-axloqiy tamoyillar iva hayot tarzini ifodalivchi tushuncha.⁵ U oila, tarbiya, diniy e'tiqod, tarixiy tajriba, til, urf odatlar orqali shakllanadi. Mintalitet xalqning o'zligini ifodalovch ma'naviy ko'zgudir. O'zbek xalqining milliy mintalitetida ayol obraziga alohida e'tibor qaratilgan. “Ayol muqaddas zot”, “Ona –Vatan timsoli” kabi qarashlar qadimdan xalq ongida mustaxkam o'rnamshgan. Shu bois ayolga xurmat, sadoqat, hayo va or-nomuskabi qadriyatlar jamiyat axloqiy mezoniga aylangan.

Milliy mintalitet ayollar faoliyatiga turlicha yo'nalishlarda ta'sir etadi. Birinchidan, u ayolning ijtimoiy ro'lini belgilaydi. Oila, farzandtarbiyasiva maishiy hayotda ma'suliyati yuqori baholanadi. Bu ijobiy jihatdan oilaning mustahkamligini ta'minlaydi.⁶

⁵ Abduqayumova R. “Millimintalitetva ayol raxbar shaxsiyati” Toshkent davlat universitet ilmiy jurnallari, Toshkent-2022.

⁶ Hamidova G. Ayollar ijtimoiy faollik “Iqtisod va madaniyat” nashtyoti, Toshkent-2021.



Ikkinchidan, an'anaviy fikrlash ayrim hollarda jamiyatdagi faolligini cheklaydi. "Ayol uyda bo'loshi kerak", "Raxbarlik erkakning ishi" kabi stereotiplarularning imkoniyatlarini toraytiradi. Uchinchidan, diiniy va axloqiy qadriyatlar ayollarning xulq-atvori, kiyinish madaniyatiga faoliyati doirasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. bu qadriyatlar ayollarda hayo iffat, sabr-toqat kabi go'zal fazilatlarni shakillantiradi. So'ngi yillarda O'zbekistonda ayollar faoliyatini qo'llab quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida gender tengligitamoyillari mustahkamlanmoqda. Ayollar parlament, mahalliy hokimiyat, ta'lim, tibiyot, biznes va ilm-fan soxalarida faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ayollar o'z milliy qadriyatlarni aqlagan holda, duntoqarashini kengaytirmoqda. bu esa milliy mintalitet va zamonaviylik o'rtsidagi uyg'unlikni ta'minlamoqda.

Ijobiy jihatlari: ayollar vatanparvarlik, sadoqat, mexr-oqibat kabi fazilatlarni mustaxkamlaydi. Oila va jamiyatda ma'naviy barqrorlikni ta'minlayda. milliy qadriyatlarga ruhini saqlab qoladi.

Salbiy jihatlari: ayrim hollarda ayollarning erkin tanlovini tashabbuskorligini cheklaydi. Jamiyatdagender tenglikni to'liq amalga oshirishni sekinlashtiradi. Ayollar o'z fikrini ochiq ifoda etishdan chekinish holatlari kuzatiladi.

Milliy mintalitet xar bir xalqning ma'daniy kodini, tafakkur uslubini, qadriyatlar uslubini belgilaydi.⁷ Shu bois ayollarning jamiyatdagi faoliyatini tahlil qilishda avvalambor milliy ong va an'analarni inobatga olish zarur. O'zbek jamiyatida ayollar qadimdan xurmatga sazovor bo'lgan. Atoqli mutaffakirla-Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniykabi ziyolilar o'z asarlarida ayolni nafaqat oila tayanchi, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ta'riflaganlar. Tarixda o'zbek ayollari ilm, madaniyat, san'at va siyosatda faol ishtirok etgan:To'maris, Bibizonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiyaxonim kabi ayollar o'z davrining ilg'or siymolari bo'lgan. Ularning faoliyati o'zbek xalqining mintalitetida ayolning kuchli, dono va ziyoli sifatida tasavvur qilinishiga zamin yaratgan. Shunday qilib milliy mintalitetda ayolga nisbatan xurmat nafaqat an'anaviy, balki ma'naviy qadriyat sifatida qaror topgan.

Milliy mintalitetning zamonaviy ko'rinishi-bugungu kunda an'anaviy va zamonaviy tushunchalar uyg'unligida namoyon bo'lmoqda.⁸ Ayol nafaqat ona va uy bekasi, balki muallima, shifokor, ilmiy xodim, siyosiy arbob, zamonaviy til bilan aytganda bizneswomen sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega. Ayni paytda ayollar milliy urf-odatlaga, oilaviy qadriyatlarga sodiq qolmoqda. Bu holat shundan dalolatki, milliy mintalitet ayollarning faolligini cheklemasligi, balki ularning ma'naviy jihatdan boyitish vositasiga aylanishi mumkin. So'ngi yillarda O'zbekistonda ayollarning raxbarlik salohiyatni oshirishga katta

⁷ Haydarov. A. Madaniyat va san'at soxasini boshqarish asoslari O'quv qo'llanma. "Kamalak" nashriyoti. Toshkent-2019, 192-bet.

⁸ Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. "YUNAKS-PRINT" nashriyoti Toshkent.2005, 170-bet.



e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Prezident huzuridagi xotin-qizlar qo'mitasi, Ayollar jamoatchilik kengashi, "Ayollar akademiyasi" dasturi kabi tashabbuslar natijasida ayol raxbarlar soni ortib bormoqda. Bu jarayon milliy mintalitetdagi stereotiplarni sekin asta yo'qqa chiqarmoqda va zamonaviy ayol raxbarlar qiyofasini shakillantirmoqda. "O'zbekistonda ayol Raxbarlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu islohotlar milliy mintalitetdagi "ayol uyda bo'lishi kerak" degan qarashlarni sezilarli darajada o'zgartirdi."⁹

XULOSA

Ayol raxbarlar faoliyatidamilliy mintalitet muhim ro'l o'ynaydi. U ayollarni ma'naviy jixatdan mustahkamlaydi. Raxbarlikda insonparvarlik va adolatni ta'minlaydi. Lekin ayrim an'anaviy fikrlar sababli ularning erkin rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu sabab, bugungi kundagi asosiy vazifa-milliy qadriyatlarni asrab, zamonaviy ayol raxbar modelini yaratishdir. Bunday ayol raxbar nafaqat boshqaruvchi, balki jamiyatda ma'naviyat, mexrva adolat timsoli bo'lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar ayol raxbarning kuchini oshiradi

Zamonaviy ayol raxbar – bu milliy qadriyatlarga sodiq, bir vaqtning o'zida zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega yetakchi bolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqayumova R. "Millimintalitetva ayol raxbar shaxsiyati" Toshkent davlat universitet ilmiy jurnallari, Toshkent-2022.
2. Hamidova G. Ayollar ijtimoiy faollik "Iqtisod va madaniyat" nashtyoti, Toshkent-2021.
3. Haydarov. A. Madaniyat va san'at soxasini boshqarish asoslari O'quv qo'llanma. "Kamalak" nashriyoti. Toshkent-2019, 192-bet.
4. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. "YUNAKS-PRINT" nashriyoti Toshkent.2005, 170-bet.
5. Nishonova N. Davlat boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari. "Extremum-Press" bosmaxonasi, Toshkent-2013, 84-bet.

⁹ Nishonova N. Davlat boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari. "Extremum-Press" bosmaxonasi, Toshkent-2013, 84-bet.

